


## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 407,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 102,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (89,6 %) ni tashkil etdi.



**B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.


## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining ko'payishiga asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 1,5 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 2,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 4,6 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 95,4 % ga oshganligi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati mahsulotlarining hajmi mlrd. so'mda va fizik hajmi indeksi, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini tashkil etdi.


### Jami tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmidagi ulushi, % da



### Tumanlar miqiyosida, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so'mda

Tumanlar nomi	2020-yil yanvar	2021-yil yanvar	FHI, %
G'allaorol tumani	375,3	983,2	155,8
Forish tumani	620,1	4 258,5	406,6
Sharof Rashidov tumani	967,3	336,1	20,6
Zomin tumani	749,4	752,0	59,4
Jizzax shahri	420,3	469,5	66,1
Zafarobod tumani	587,2	1051,2	106,0

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 364,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,6 % ini tashkil etdi.


## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



## Yuqori texnologiyali



## O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali	quyi texnologiyali
<p><b>Ulushi % da</b></p> <p>19,2 2020- y.</p> <p>14,0 2021- y.</p>	<p><b>Ulushi % da</b></p> <p>64,5 2020- y.</p> <p>69,3 2021- y.</p>


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % ni (2020- yilning yanvar oyida - 3,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 4,5 % (3,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 14,0 % (19,2 %) va quyi texnologiyalisi - 69,3 % (64,5 %) ni tashkil etdi.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 6,9 % ( 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 1,7 % ( 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 72,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,4 % ( 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 81,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,0 % ( 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajmi indeksi 127,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,0 % ( 2020- yilning yanvar- oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni ( 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 7,1 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	4 905,0	5 252,0	347,0
Paxta tolasi, t.	5 061,0	1 550,0	- 3 511,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	230,3	366,2	135,9
Paxta linti, t.	454,0	148,0	- 306
Trikotaj polotnolar, t.	191,0	306,0	115

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

2021- yilning yanvar oyida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ( 7,0 % ini) tashkil etdi.

**Jami elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hajmidagi ulushi % da**




2021- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,0 % ga oshganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	19 450,9	17 920,4	-1 530,5
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	3,6	3,5	- 0,1

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	8 591,1	10 602,6	2 011,5

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1 689,6	5 619,8	3 930,2
Kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	2,1	2,3	0,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1081,9	201,3	-880,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 41,2 % ga oshganlik kuzatildi, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 84,0 % ga, hamda kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar 22,5 % ga pasayishi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 155,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 38,1 % ni tashkil etdi.

















Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,0 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 6,0 % ni, Zomin tumani 5,8 % ni hamda Do'stlik tumani 8,4 % ni tashkil etdi.



Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumani ( 198,0 %), Paxtakor (224,4 %) va Zarbdor (210,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

(2021- yilning yanvar oyida)















	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	155,1	100,0	110,6		9,1	5,8	84,8
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	43,4	28,0	92,3		7,2	4,6	210,9
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	9,0	5,8	106,0		19,7	12,7	198,0
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	5,6	3,6	97,8		4,6	3,0	103,7
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	6,6	4,3	98,3		15,8	10,2	224,4
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	9,3	6,0	102,2		4,0	2,6	105,4
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	13,0	8,4	82,2		7,9	5,1	97,9
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 24,3 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 7,8 % ni,

Do'stlik tumani 15,1 % ni, Zomin tumani 5,0 % ni hamda Paxtakor tumani 15,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahar (145,4 %) hamda Paxtakor tumanida (180,7 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021- yilning yanvar oyida)















	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	48,9	100,0	109,3		2,4	5,0	73,9
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	11,9	24,3	145,4		3,8	7,8	161,5
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	2,0	4,0	95,5		2,2	4,4	108,1
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	2,8	5,7	99,4		1,2	2,5	58,4
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	2,5	5,0	103,0		7,6	15,5	180,7
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	2,0	4,1	74,6		1,7	3,5	85,2
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	7,4	15,1	81,0		1,5	3,0	93,9
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 29,7 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani

6,8 % ni, Zafarobod tumani 16,5 % ni, Zomin tumani 6,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumaniga to'g'ri kelib, 220,6 % ni, Mirzacho'l tumani (143,2 %), Sharof Rashidov tumani (113,8 %) hamda Zarbdor tumanida (323,2 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati















2021- yilning yanvar oyida

	<i>Mrd. so'm</i> 106,2	<i>Ulushi % da</i> 100,0	<i>O'sishi % da</i> 111,3		<i>Mrd. so'm</i> 6,6	<i>Ulushi % da</i> 6,3	<i>O'sishi % da</i> 89,7
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	<i>Mrd. so'm</i> 31,5	<i>Ulushi % da</i> 29,7	<i>O'sishi % da</i> 81,1		<i>Mrd. so'm</i> 3,4	<i>Ulushi % da</i> 3,2	<i>O'sishi % da</i> 323,2
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	<i>Mrd. so'm</i> 7,1	<i>Ulushi % da</i> 6,7	<i>O'sishi % da</i> 109,3		<i>Mrd. so'm</i> 17,6	<i>Ulushi % da</i> 16,5	<i>O'sishi % da</i> 220,6
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	<i>Mrd. so'm</i> 2,8	<i>Ulushi % da</i> 2,6	<i>O'sishi % da</i> 96,3		<i>Mrd. so'm</i> 3,4	<i>Ulushi % da</i> 3,2	<i>O'sishi % da</i> 143,2
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	<i>Mrd. so'm</i> 4,1	<i>Ulushi % da</i> 3,9	<i>O'sishi % da</i> 95,7		<i>Mrd. so'm</i> 8,2	<i>Ulushi % da</i> 7,7	<i>O'sishi % da</i> 289,2
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	<i>Mrd. so'm</i> 7,3	<i>Ulushi % da</i> 6,8	<i>O'sishi % da</i> 113,8		<i>Mrd. so'm</i> 2,3	<i>Ulushi % da</i> 2,1	<i>O'sishi % da</i> 128,7
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	<i>Mrd. so'm</i> 5,6	<i>Ulushi % da</i> 5,3	<i>O'sishi % da</i> 83,8		<i>Mrd. so'm</i> 6,4	<i>Ulushi % da</i> 6,0	<i>O'sishi % da</i> 98,9
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar oyida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 126,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 31,2 % ni tashkil etdi.

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2021- yilning yanvar oyida

	<i>Mrd. soʻm</i> 407,1	<i>Ulushi % da</i> 100,0	<i>Oʻsishi % da</i> 102,4		<i>Mrd. soʻm</i> 12,2	<i>Ulushi % da</i> 3,0	<i>Oʻsishi % da</i> 74,1
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	<i>Mrd. soʻm</i> 150,5	<i>Ulushi % da</i> 37,0	<i>Oʻsishi % da</i> 101,8		<i>Mrd. soʻm</i> 21,3	<i>Ulushi % da</i> 5,2	<i>Oʻsishi % da</i> 56,5
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	<i>Mrd. soʻm</i> 16,0	<i>Ulushi % da</i> 3,9	<i>Oʻsishi % da</i> 55,8		<i>Mrd. soʻm</i> 21,3	<i>Ulushi % da</i> 5,2	<i>Oʻsishi % da</i> 155,9
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	<i>Mrd. soʻm</i> 5,6	<i>Ulushi % da</i> 1,4	<i>Oʻsishi % da</i> 104,0		<i>Mrd. soʻm</i> 4,8	<i>Ulushi % da</i> 1,2	<i>Oʻsishi % da</i> 43,6
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzachoʻl</b>			
	<i>Mrd. soʻm</i> 8,1	<i>Ulushi % da</i> 2,0	<i>Oʻsishi % da</i> 105,3		<i>Mrd. soʻm</i> 54,1	<i>Ulushi % da</i> 13,3	<i>Oʻsishi % da</i> 186,1
<b>Gʻallaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	<i>Mrd. soʻm</i> 28,9	<i>Ulushi % da</i> 7,1	<i>Oʻsishi % da</i> 108,5		<i>Mrd. soʻm</i> 13,5	<i>Ulushi % da</i> 3,3	<i>Oʻsishi % da</i> 106,8
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	<i>Mrd. soʻm</i> 62,8	<i>Ulushi % da</i> 15,4	<i>Oʻsishi % da</i> 85,7		<i>Mrd. soʻm</i> 7,9	<i>Ulushi % da</i> 1,9	<i>Oʻsishi % da</i> 100,2
<b>Doʻstlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 155,9 %), Paxtakor (186,1 %), Sharof Rashidov (108,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.



## Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 37,0 % ni) hamda Do'stlik (15,4 %), Paxtakor (13,3 %) va Sharof Rashidov (7,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Baxmal (1,4 %) hamda Mirzacho'l (1,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (840,3 ming so'm), Do'stlik (952,6 ming so'm), Zafarobod (425,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 111,1 ming so'm bo'lgan bo'lsa, Jizzax shahrida 242,5 ming so'mni, Yangiobod tumanida 277,7 ming so'mni, Zafarobod tumanida 393,1 ming so'mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar oyida, ming. so'm

	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 291,6	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 111,1		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 74,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 54,9
<b>Jizzax viloyati</b>			<b>Zomin</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 840,3	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 242,5		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 244,4	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 82,6
<b>Jizzax shahar</b>			<b>Zarbdor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 347,1	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 195,6		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 425,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 393,1
<b>Arnasoy</b>			<b>Zafarobod</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 35,8	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 35,3		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 92,4	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 88,8
<b>Baxmal</b>			<b>Mirzacho'l</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 47,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 38,1		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 721,1	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 210,7
<b>G'allaorol</b>			<b>Paxtakor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 129,5	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 41,4		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 144,8	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 42,9
<b>Sharof Rashidov</b>			<b>Forish</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 952,6	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 196,6		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 277,8	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 277,7
<b>Do'stlik</b>			<b>Yangiobod</b>		

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yil yanvar oyida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 246,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 60,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), Zomin ( 99,9 %), Zafarobod (100,0 %) hamda tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes sub'yektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Paxtakor ( 27,8 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida ( 35,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.


## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2021- yil 1-fevral holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3492 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 099 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 31,5 % ) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga



689 tasi ( 19,7 %), G'allaorol tumaniga 342 tasi ( 9,8 %), Zomin tumaniga 267 tasi ( 7,6 %), Forish tumaniga 160 tasi (4,6 %), Zarbdor tumaniga 158 tasi ( 4,5 %) to'g'ri kelmoqda.



2021- yil yanvar oyida viloyatda 821 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 188 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 22,9 %) Jizzax shahrida, 105 tasi (12,8 %) Sharof Rashidov tumanida, 114 tasi (13,9 %) G'allaorol tumanida tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (72-221-51-13)